

*Amir Temur tavalludining 690-yiliga
bag'ishlangan maxsus son*

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlangan maxsus son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

MUNDARIJA

Ahmadali Asqarov Amir Temur buyuk sarkarda va daho davlat arbobi	4
Hojiakbar Hamidov Amir Temur va Temuriylar davri san'ati namoyandalari tarixidan	13
Hamroyeva Orzigul Jalolovna Temuriylar davridagi ilmiy-adabiy jarayon manbalari	24
Qo'ldashev Sherali Temuralievich Qo'qon xonligi yozma manbalarida Amir Temur va Temuriylar tarixi yoritilishi	33
Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich Amir Temur tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarda strategik yondashuv	43
Mamataxunov Nozim Azizovich Amir Temur va Temuriylar davrida Xitoy bilan olib borilgan aloqalar	53
Bobojonov Islombek Usmonaliyevich Amir Temur davrida Mamluklar sultonligi bilan olib borilgan aloqalar	61
Djurayev Ikrom Nematovich, Xurramova Sevinch Jamshid qizi Amir Temur davlati uning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy hayoti	70
Xasanova Mashxura Jumanovna Qasidalarda Temuriylar madhi	77
Qo'chqarov Temurbek Baxromjon o'g'li Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o'rni	86
Sherzod Jo'rayev Norovich Temuriylar davri Hirot tarixchilik maktabi	95
Isakov Abdulahad Abdulvahobovich Amir Temurning Yevropa hukmdorlari o'rtasidagi elchilik munosabatlari, ayniqsa til va tarjimonlik masalalaridagi diplomatik munosabatlari	107
Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna Temuriylar davlatida xalqaro diplomatiya va pochta tizimining o'rni	120
Bo'riyev Islom Sobir o'g'li Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiyning "yetti iqlim" nazariyasiga doir qarashlari qiyosiy tahlili	129
Yunusov Komiljon Alimdjanovich Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida qo'lyozmalarni namoyish etish imkoniyati va ahamiyati	137
Sattorov Ulug'bek Abdurazzoq o'g'li Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar merosi tiklanishida YUNESKOning o'rni	148
Abdullayeva Gulandom Anvarovna Robiya Sulton-Begim va Temuriylar saroyida ayollarning tarixiy o'rni	157
Po'latov Otabek Orifjon o'g'li Temuriylar davrida hunarmandchilik tarmoqlari rivoji	163

**TEMURIYLAR DAVRIDAGI ILMIY-ADABIY JARAYON MANBALARI
SOURCES OF THE SCIENTIFIC AND LITERARY PROCESS DURING
THE TIMURID ERA****ИСТОЧНИКИ НАУЧНО-ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА ЭПОХИ
ТИМУРИДОВ****Hamroyeva Orzigul Jalolovna***ToshDO 'TAU, O'zbek adabiyoti
tarixi va matnshunoslik kafedrası,
filologiya fanlari doktori, professor**Tel.: +998 97-777-67-36**E-mail: arguvon87@mail.ru*

Annotatsiya. Temuriylar davrida adabiyot bilan bir qatorda ilm-fan ham yuqori pog'onaga ko'tarildi. Shoirilar nafaqat mahoratga ega bo'lishlari, shu bilan birgalikda she'r ilmi nazariyasini ham mukammal bilishlari kerakligi zarurat bo'lib qoldi. Temuriy hukmdor va shaxzodalarning e'tibor va adabiy ta'sir natijasida mavjud manbalardagi poetikaga oid nazariy masalalar davr she'riyatiga hamohang tarzda mukammallikka erishdi. Mavjud an'ana va nazariy qoliplar fors va turkiy she'riyatga moslashtirilgan holda qayta ishlandi, kamchiliklar tuzatildi. Poetika ilmi, ilmi bayon va ilmi maon haqidagi risolalarga sharhlar yozildi. Maqolada temuriylar davridagi qofiya ilmiga doir risolalar tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *qofiya ilmi, poetika, risola, manba, sharh, matn, qofiya harflari, qofiya harakatlari.*

Annotation. During the Timurid period, alongside literature, science also rose to a high level. It became necessary for poets not only to possess skill, but also to have a thorough knowledge of the theory of poetry. As a result of the attention and literary influence of Timurid rulers and princes, theoretical issues related to poetics in existing sources reached a high degree of perfection in harmony with the poetry of the time. Existing traditions and theoretical frameworks were reworked and adapted to Persian and Turkic poetry, and their shortcomings were corrected. Commentaries were written on treatises concerning poetics, the science of expression, and the science of meaning. This article examines treatises on the science of rhyme from the Timurid period.

Keywords: *science of rhyme, poetics, treatise, source, commentary, text, rhyme letters, rhyme vowels.*

Аннотация. В эпоху Тимуридов наряду с литературой на высокий уровень поднялась и наука. Для поэтов стало необходимым не только обладать мастерством, но и в совершенстве знать теорию поэзии. В результате внимания и литературного влияния тимуридских правителей и

AI-BUXORIY

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan maxsus son

принцев теоретические вопросы поэтики, отражённые в существующих источниках, достигли высокой степени совершенства в гармонии с поэзией своего времени. Существующие традиции и теоретические модели были переработаны и адаптированы к персидской и тюркской поэзии, а их недостатки устранены. Были написаны комментарии к трактатам по поэтике, науке изложения и науке значения. В статье исследуются трактаты, посвящённые науке рифмы в эпоху Тимуридов.

Ключевые слова: наука рифмы, поэтика, трактат, источник, комментарий, текст, буквы рифмы, огласовки рифмы.

KIRISH

Temuriylar davrida yaratilgan poetikaga oid risolalarning aksariyatida uch ilm: aruz, qofiya va badiiy san'atlar alohida qismlar asosida taqdim qilindi. Fors va turkiy tilda parallel holda poetika ilmiga oid risolalar yaratildi. Arab, fors qofiyashunosligi ta'sirida turkiy qofiyashunoslik shakllandi, turkiy til qonuniyatlari asosida qayta ishlandi, takomillashtirildi. Temuriylar davridagi adabiy jarayon, xususan, poetika va mumtoz qofiya nazariyasiga oid risolalarning yaratilishi bilan bog'liq jarayonni tarixiy genetik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilish yaxshi samara beradi. Davr adabiy jarayoni adabiy ta'sir va genetik aloqa natijasi o'laroq takomillashgan. Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar mualliflari risola yozish sabablarini keltirish, ilmiy-nazariy qarashlarni taqdim qilish va misra va baytlar misolida tushuntirish asnosida mavjud manbalarga murojaat qilishgan, ba'zi o'rinlarda ulardagi ilmiy qarashlarga tayanishgan. Adabiy aloqalar va ta'sirlar masalasi milliy adabiyotlar taraqqiyotini kafolatlaydigan omillardan biri ekani isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqola temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar: Ahmad Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balog'a", Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya", Atoulloh Husayniyning "Risolayi qofiya", "Badoye' us-sanoye'", Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor" tadqiqiga bag'ishlangan. Maqola davomida yuqoridagi manbalar tarkibiy tuzilishi va ilmiy-nazariy qonununiyatlarning berilishi, muallif uslubining o'ziga xos jihatlariga tayanib tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda temuriylar davridagi ilmiy-adabiy jarayon borasida olib borilgan, xususan, aynan qofiya ilmiga oid risolalar qiyosiga bag'ishlangan tadqiqotlarga mavzuni ilmiy asoslash maqsadida murojaat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar tadqiqiga bag'ishlangani bois manbalarning tarkibiy tuzilishi, davr adabiy, ilmiy jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatish maqsadida qiyosiy-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Risolalarning yaratilishi sababi, muallif ilmiy uslubi borasidagi xulosalar biografik metodga tayanib keltirildi. Manbalardagi nazariy masalalar statistik metod asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temuriylar davridagi turkiy qofiya tadqiqiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri Ahmad Taroziyning "Funun ulbalog'a" asari asaridir. Poetikaga bag'ishlangan arab, fors tilidagi asarlar ta'siri natijasida yaratilgan "Funun ulbalog'a" asari turkiygo'y ijodkorlar talabi bilan yuzaga kelgan edi. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari poetika ilmiga oid arab, fors manbalardagi qonuniyat, munosabatlarning jamlanmasi bo'lishi bilan birga unda bu ilmlarning ancha mukammal, takomillashgan ko'rinishi aks etgan. Asarda adabiy tur, janr, badiiy san'atlar, vazn va qofiya ilmiga oid nazariy fikrlarning taraqqiy etganligini kuzatish mumkin (Тарозий А., 1996:2016). Ahmad Taroziy ilmlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismlari, tushunchalariga izoh berar ekan, misollar, baytlar orqali tushuntiradi. "Ilmlar uchligi" tarkibining muhim qismlaridan biri qofiya va uning nazariyoti xususida "Funun ul-balog'a"da keng ma'lumot berilgan. Ma'lumki, asarda muqaddimadan tashqari 5 qism keltirilgan, bu qismlarda olim adabiy tur va janrlar, ilmi qofiya, ilmi bade', ilmi aruz va muammoning nazariy masalalarini yoritib berilgan. Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a"da qofiyani bir umumiy "Al-fannus-soniy-fi-l-qofiya va-radif" sarlavha ostida tushuntiradi.

"Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab'g'a qofiya ilmin bilmak muhimdir" jumalari bilan boshlangan bu qismda olim qofiyaga yuqori baho berib, uni "she'ning asli, asosi" sifatida baholaydi. Qofiyasiz she'r bo'lishi mumkin emas. Olimning aytishicha, ba'zan qofiyasiz she'r ham uchrab turadi. Bu she'rga "harora she'r" deb nom berishgan. Qofiya munosabatida olimlar o'rtasida ixtiloflar mavjud bo'lib, "Funun ul-balog'a"da ularga birma-bir e'tibor qaratilgan. Olim asarda qofiya nazariyasiga oid manbalar nomini keltirmaydi. Arab va ajam olimlarining fikrlarini o'zaro qiyosiy o'rganadi, turkiy adabiyotdagi holatni taqdim qiladi. Mumtoz qofiyaning turkiy adabiyotdagi o'rnini belgilash maqsadida "she'ning asosi" sifatida qofiyani asosiy unsur sifatida taqdim etadi.

Garchi mumtoz qofiyaga oid risola bo'lmasa-da, Alisher Navoiy va Z.M.Bobur poetika ilmiga oid asarlarida qofiyaga oid qarashlarini bildirib o'tishgan. Ayniqsa, Boburning qofiya ilmiga oid maxsus asar yaratgani va bu asar

bizgacha yetib kelmaganligi haqida adabiyotshunoslikda bir qancha qarashlar mavjud.

Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya" asari temuriylar davri qofiya ilmi tadqiqiga bag'ishlangan fors tilidagi muhim manbalardan biri bo'lib, 1465-yilda yaratilgan. Jomiy ushbu risolasini Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarining "Qofiya" qismiga asoslanib yozgan (Abdurahmon Jomiy, 1967). "Risolayi qofiya"ning bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ulardan birini fan doktori A.Erkinov Berlin Davlat kutubxonasidan keltirgan. Bu nusxa "Aruzi Sayfiy Buxoriy" tarkibida "Risolai qofiyayi Mulla Jomiy" sarlavhasi asosida kiritilgan. Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya" asari dastlab nemis olimi Henri Bloshman tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, olim "Prosody of Persians according to Saifi, Jami and others writers" ("Sayfi, Jomiy va boshqa ijodkorlarning forsiy she'rshunoslikka oid qarashlari") nomli tadqiqotida Jomiy risolasini e'lon qilish bilan birga, tadqiqotning kirish qismida Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" hamda Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya" asari xususida nazariy fikrlarini taqdim qiladi (Henri Blochman, 1972). Henri Bloshmanning bu tadqiqoti talabalar uchun mumtoz poetika ilmi, qofiya va aruz nazariyasini tushuntirishda qo'llanma sifatida yaratilgan. Asar fors tilidagi qofiya ilmiga bag'ishlangan muhim risolalardan biri bo'lib, Jomiy Hamd (Boshlanma – H.O.), Muqaddima, Xotima qismi bilan birgalikda 8 qism (1. Bismillahi-r rohiani-r-rohim 2. Muqaddima 3. Hurufi qofiya (Qofiya harakatlari) 4. Harakoti qofiya (Qofiya harakatlari) 5. Mutarodif-u mutavotir va mutadorik-u mutaqorib va mutakovis 6. Muqayyadi mutlaq-u mujarrad 7. Uyubi qofiya 8. Xotima asosida qofiya ilmi bilan tanishtirgan. Risola an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Jomiy risolaning Hamd qismida Allohga cheksiz hamd, Rasulimizga madhu sanolar aytgan holda asarning yozilish tarixi xususida ma'lumot berib o'tadi. Fikrni she'riy - qit'a janri shaklida keltiradi.

Chu gul ba xanda daroyad labi amal zi nishot,

Agar zi gulshani lutfash vazad nasimi qabul.

Ya'ni: Labingning xursandchiligiga amal qilib gul xanda qilsun, Agar gulshanda shamol uning lutfini qabul qilsa.

Asardagi keyingi qism "Muqaddima" sarlavhasi ostida berilgan bo'lsa-da, bu qism asarning muqaddimasi sifatida emas, qofiya ilmining muqaddimasi vazifasini bajargan. Jomiy bu qismda qofiya, radif, ridf so'zlariga ta'rif beradi. Qofiya haqidagi risolalar kabi avvalida qofiyaga, umumiy tushunchalarga e'tibor qaratib, keyinchalik ularning qismlariga birma-bir to'xtalib o'tadi. Jomiy ajam shoirlari odaticha, qofiyani baytlar oxiridagi so'zlarning takrorlanib kelishi sifatida

baholaydi. Biroq olim buning bir sharti - talaffuzda mustaqil bo'lmashini alohida ta'kidlaydi.

Jomiy o'zigacha yaratilgan qofiya haqidagi risolalardan xabardor bo'lgan, risola va muallif nomlarini keltirmasa-da, "ba'zilar jumlaning oxirini qofiya desa, ba'zilar raviy harfini qofiya deb atashadi" shaklida qofiyashunoslikdagi mavjud qarashlarni taqdim qiladi (Hamroyeva O. 2022).

Mumtoz badiiyat ilmi nazariyasiga bag'ishlangan risolalar orasida Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor fi sanoye' ul-ash'or" asari muhim manbalardan sanaladi. Mumtoz poetika ilmi nazariyasiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor fi sanoye' ul-ash'or" asaridir. Koshifiyning ushbu risolasi mumtoz poetikaning tarkibiy qismlaridan biri ilmi badi' tadqiqiga bag'ishlangan. Ilmi badi'ning aruz va qofiya bilan o'zaro bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan ushbu asar fors adabiyotining muhim manbalaridan biridir. Husayn Voiz Koshifiy o'zigacha yaratilgan arabiy va forsiy tildagi risolalar va ilmiy manbalar bilan chuqur tanishgan holda ushbu asarini yaratgan. XV asr Xurosondagi ilmiy muhit bu asarning yuzaga kelishiga zamin yaratib berdi. Mumtoz poetika ilmining bilimdoni Abdurahmon Jomiyning poetika ilmi tarkibiy qismlaridan bo'lmish aruz hamda qofiyaga oid "Risolayi qofiya" va "Risolayi aruz" asarlarining yaratishi, bu davr ilmiy muhiti yuqori pog'onada ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning aruz vazni nazariyasiga bag'ishlangan "Mezon ul-avzon" asari esa turkiy tildagi ilmi aruz bag'ishlangan muhim manbalardan biridir. Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor fi sanoye' ul-ash'or" asari ham shu davrda yaratilgan muhim manbalardan biri bo'lib, muallif asar so'zboshisida o'z risolasini Hirot shohi Sulton Husaynga taqdim qilganini ta'kidlaydi. Sulton Husaynni adolatli hukmdor sifatida ta'riflab, "Badoye' ul-afkor" uning e'tibori bilan yaratilganini ma'lum qiladi.

Mumtoz poetika ilmiga bag'ishlangan ushbu asarda mumtoz she'r nazariyasi borasida bahs yuritiladi. Adabiy tur va janrlar, ularning o'ziga xos xususiyati, badiiy san'atlar tavsifi asar mohiyatini belgilab bergan. "Badoye' ul-afkor"ning matni olim R.Musulmonqulov tomonidan Moskvada e'lon qilingan bo'lib, nashrga asarning faksimel nusxasi ham ilova qilingan (Камал ад-Дин Хусайн Ва'из Кашифи, 1977).

Husayn Voiz Koshifiy asar so'zboshisida "Badoye' ulafkor"da mumtoz she'r ilmi, nazariyasi, janrlar, she'r qismlari, badiiy san'atlar, qofiya ilmi nazariyasi keltirilganini ta'kidlaydi. Koshifiy risolani yaratishda o'zigacha yaratilgan barcha ilmiy manbalar bilan tanish bo'lgan. An'aviy tarzda ularning uslubini davom ettirgan. Garchi asarda ularning nomlari keltirilmasa-da, san'atlar ketma-ketligi,

AI-BUXORIY

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan maxsus son

namunalarning berilishida bu holat ko'zga tashlanadi. "Badoye' ul-afkor" asari muqaddima, ikki bob va xotimadan iborat, boblar ma'lum tartib asosida she'r qismlari, janrlari, badiiy san'atlar haqida ma'lumot beradi. Muqaddima 4 fasldan tarkib topgan. Koshifiy fasllarni taqdim qilishda o'ziga xos uslubga tayangan: har fasl so'ngida maxsus ikki qismli "Nukta" va "Foyda" sarlavhasi ostida izoh qism keltirgan. Dastlabki fasl "She'r ta'rifi" haqida bo'lib, she'rning o'ziga xos xususiyatlari, yozilish tartibi xususida batafsil ma'lumot beriladi. Ikkinchi fasl "She'r na'vlari" xususida, Koshifiy umumiy xususiyatga ega bo'lgan she'r shakllarini bir nom ostida birlashtiradi. Uchinchi faslda "Dar bayoni aqsomi she'r" sarlavhasi bilan qofiya va shakl jihatidan bir umumiy xususiyatga ega she'r shakllari haqida ma'lumot beriladi.

Husayn Voiz Koshifiy asarning Xotima qismida qofiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlarni taqdim etadi. Bu qismda g'azal va qasida janrlari to'liq shaklda keltirilgan, ba'zi o'rinlarda qasida va g'azal baytlari bilan tanishtirish barobarida qofiya harflari, harakatlari va qofiya ayblari xususida ma'lumot keltiriladi. Koshifiy "Yakunlovchi qismning xulosalari" sarlavhasi ostida dastlab bir raqami ostida VII asrning mashhur notiqi Imom Hiraviydan qasida keltiriladi.

Ayo zi bahri tafoxur myxadaroti sipehr,
Hamisha dar harami hurmate tu, karda sujud!
Sabab vujud tu bud, ar na charkh vorunkor
Nayofaridi xud Vojib-al vujud, vujud.

Undan so'ng qofiya harakatlari nomlari aks etgan, mumtoz qofiyaga oid fors tilidagi risolalarning deyarli barchasida keltirilgan bayt taqdim qilinadi.

Rass-u ishbo-u, hazv-u tavjih ast;
Boz majro-yu bad azust nafoz.

Ma'lumki, qofiya ilmi nazariyasiga ko'ra qofiya harakatlari (oltita): rass, ishbo', hazv, tavjih, majro, nafoz, ular qofiya harflari bilan yonma-yon joylashadi. "Badoye' ul-afkor"da bu harakatlar, ularning o'rni va joylashuvi borasida batafsil ma'lumot keltirilmaydi. Asarning keyingi qismlarida g'azal, qasida, qit'a, ruboiy janriga oid she'riy parchalar to'liq holatda taqdim qilinadi. Keltirilgan adabiy parchalarning aksariyati Kamol Xo'jandiy qalamiga mansub bo'lib, Koshifiy Kamoliddin Xo'jandiyning badiiy jihatdan mukammal g'azal va qasidalarini tanlab olgan. Keyingi qismlarda qofiya ayblari keltiriladi. Ayni o'rinda Husayn Voiz Koshifiy bu sohaning yetuk mutaxassisi sifatida qofiya harf va harakatlardagi ayblarni (ixtiloflar) arab va fors tili she'riyati asosida alohida izohlagan. Olim o'zigacha yaratilgan risolalardagi nazariy ma'lumotlarni qiyosiy o'rgangan. Qofiyadagi ixtiloflar xususida to'xtalganda, arab va fors adabiyotidagi farqli jihatlarini ko'rsatadi, Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asariga murojaat

AI-BUXORIY

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan maxsus son qiladi. "Badoye' ul-afkor"dagi nazariy qarashlarning tamal toshi sifatida "Almo'jam"dagi ma'lumotlarga tayanadi.

Mumtoz poetika ilmining bilimdoni Atoullloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asari badiiyat ilmi nazariyasi tadqiqiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri bo'lib, olim ilmi badi' tarkibida qofiyaning nazariy asoslarini taqdim qiladi.

XV asrning o'rtalarida yashab ijod etgan shoir, olim Atoullloh Nishopuriy Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asari ilmi bade'ga oid mukammal risolalardan biridir. "Badoye' us-sanoye'"ning bir qancha qo'lyozma nusxalari bo'lib, risola dastlab 1974-yilda Dushanbeda Rahim Musulmonqulov tomonidan nashrga tayyorlangan. Risolaning o'zbek tilidagi tarjimasini poetika ilmining bilimdoni A.Rustamov amalga oshirgan (Atoullloh Husayniy, 1981: 397). Asar an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Atoullloh Husayniy risolaning so'zboshisida aruz va qofiya ilmiga oid mukammal risola yozish niyatida ekanligini ta'kidlaydi. "Badoye' us-sanoye'"ning "Muqaddima" qismi aruz ilmiga bag'ishlangan, olim bu qismda zihof va bahrlarga oid ilmiy-nazariy qarashlarini taqdim qiladi. "Muqaddima"dan keyingi qismlar lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar tavsifiga bag'ishlanadi.

Atoullloh Husayniyning "Risolayi dar qavoyidi ilmi qavofi" risolasi mumtoz qofiya ilmi nazariyasiga bag'ishlangan mukammal manbadir (Atoullloh Husayniy, h.1393). Navoiyning "Majolis un-nafois", Boburning "Boburnoma", Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarlarida ilmiy salohiyatiga yuqori baho berilgan Atoullloh Husayniyning "Risola dar qofiya" asari 1487-yilda Alisher Navoiyning topshirig'i bilan yozilgan. Ushbu risolaning "Risolayi qofiya", "Risolayi dar qofiya", "Risolayi vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy", "Qofiya yo muntaxab maqta'a takmilul sanoye'", "Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi" nomlari ostidagi 80 dan ortiq qo'lyozma nusxalari jahon kutubxonalarida saqlanadi. "Badoye' us-sanoye'" asarining kirish qismida ham bu risolaning 79 nusxasi borligi aytiladi. Tehron va Tojikiston kutubxonalarida risolaning bir qancha nusxalari mavjud, qo'limizdagi hij. 1393-yildagi nashri so'zboshisida ham asar ikki nusxani solishtirish asnosida Fozil Abboszoda va Doktor Rajab Tavhidyon tomonidan Tehronda nashr qilingani aytiladi. Risola an'anaviy tarzda hamd bilan boshlanadi.

Atoullloh Husayniy risolani 9 qismga bo'ladi. Qismlarni "Harf"atamasi ostida keltiradi: 1-harf. Qofiya ta'rifi 2-harf. Qofiya harflarining soni. Raviydan oldin va keyin keluvchi harflarning ifodalanishi 3-harf. Qofiya harflarining ifodalanishi (Raviydan keyingi harflar) 4-harf. Qofiya harakatlari xususida 5-harf. Raviy va uning o'ziga xos xususiyatlari 6-harf. Qofiyaning taqti' e'tiboriga ko'ra turlari 7-harf. Qofiya otlariga tegishli bo'lgan ayblar xususida 8-harf. Qofiya otlariga

AI-BUXORIY

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan maxsus son tegishli bo'lgan ayblar xususida 9-harf. Hojib va radif haqida Atoulloh Husayniy qofiya ilmiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni boshqa manbalarga tayangan holda, qiyosiy o'rgangan holda taqdim qiladi. Shamsiddin Qays Roziyning "Almo'jam, Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarlariga murojaat qilib, ba'zi o'rinlarda ular bilan bahsga kirishadi. Ko'rinib turibdiki, temuriylar davrida yaratilgan, qofiya ilmi tadqiqiga bag'ishlangan risolalar o'z strukturasi va uslubiga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, temuriylar davrida poetika ilmining nazariy asoslari alohida uch ilm (ilmi segona) mustaqilligi asosida takomilga yetdi. Arab, fors adabiyotshunosligi ta'sirida shakllangan turkiy adabiyotshunoslik masalalari aruz, qofiya, badiiy ilmiga doir maxsus risolalarning yaratilishiga asos bo'ldi. Dastlab bu uch ilm bir butunlikda poetikaga oid risolalar uchun adabiy material vazifasini bajargan bo'lsa, temuriylar davriga kelib, ular alohida risolalar obyektiga aylandi:

- "Funun ul-balog'a" asari – turkiy qofiyashunoslik nazariyasining dastlabki manbasi sanaladi. Ahmad Taroziy fors qofiyasini turkiy qofiya bilan qiyosiy o'rgangan holda turkiy qofiya qonuniyatlarini ishlab chiqqan.
- Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya" va Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor" asari muxtasar qo'llanma sifatida o'ziga xos uslubga ega.
- Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asari qofiya va ilmi bade' nazariyasining uyg'un jihatlari aks etgan muhim manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmon Jomiy. (2008) Risolayi qofiya. // Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboyev talqinida. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopedisi, -B. 274-314.
2. Abdurahmon Jomiy. (1867) Risolayi qofiyayi Mulla Jomiy. Kalkutta.
3. Atoulloh Husayniy. (1981) Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A.Rustamov tarjimasini) –T., B. 397.
4. Atoulloh Husayniy. (h.1393) Risolayi qofiya. (Doktor Yusufbek Bobopur). Tehron.
5. Hamroyeva O.J. (2022) Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalarda qofiya ilmiyning qiyosiy tadqiqi. Monografiya. -T., Bookprint.
6. Hamroyeva O.J. (2022) Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. -T., Bookprint.
7. Jalolovna, HO (2022). Temuriylar davri risolalarida qofiya fanining takomillashtirilishi. *Amerika fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalar jurnali*, 10, 342-348.

AI-BUXORIY

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan maxsus son

8. Камал ад-Дин Хусайн Ва'из Кашифи.(1977) Бадаи- ал-афка-р фи- сана-и 'ал-аш'ар (Новые мысли о поэтическом искусстве). Издание текста, предисловие, примечания и указатели Р. Мусульманкулова. – Москва: Наука.
9. Мусульманкулов Р. (1989) Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XVвв) – Москва: Наука, –Б.240.
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy.(2016) Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) - T.: Mumtoz so'z.

REFERENCES:

1. Abdurahmon Jomiy. (2008) Risolayi qofiya. // Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboyev talqinida. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -B. 274-314. (in Uzbek)
2. Abdurahmon Jomiy. (1867) Risolayi qofiyayi Mulla Jomiy. Kalkutta. (in Persian)
3. Atoullloh Husayniy. (1981) Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A. Rustamov tarjimas) – T. (in Uzbek)
4. Atoullloh Husayniy. (h.1393) Risolayi qofiya. (Doktor Yusufbek Bobopur). Tehron. (in Persian)
5. Hamroyeva O.J. (2022) Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalarda qofiya ilmiyning qiyosiy tadqiqi. Monografiya. -T., Bookprint. (in Uzbek)
6. Hamroyeva O.J. (2022) Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. -T., Bookprint. (in Uzbek)
7. Jalolovna, H.O. (2022). Temuriylar davri risolalarida qofiya fanining takomillashtirilishi. Amerika fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalar jurnali, 10, 342-348. (in Uzbek)
8. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy. (1977) Badoyi' ul-afkor fi sano'i' ul-ash'or (Yangi fikrlar she'riy san'at haqida). Matn nashri, kirish so'zi, izohlar va ko'rsatkichlar R. Musulmonqulov. – Moskva: Nauka. (in Russian)
9. Musulmonqulov R. (1989) Fors-tojik klassik poetikasi (X-XV asrlar). – Moskva: Nauka, -B. 240. (in Russian)
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. (2016) Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, J. Jo'rayev) - T.: Mumtoz so'z. (in Uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhah: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“AL-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 28-aprel, 6-sonli yig‘ilish
bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.